

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

**FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKARINI TA'MINLASH HAMDA HUQUQIY XIZMAT KO'RSATISHDA
ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan qonunchilik hujjatlarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, joylarda aholini tashvishga soluvchi huquqiy muammolarni hal etish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish, o'z faoliyati yuzasidan jamoatchilikka tizimli ravishda ma'lumotlar taqdim etish masalalarida adliya organlari va muassasalarining roli va mas'uliyati sezilarli ravishda oshmoqda.

Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston — xalqchil va insonparvar davlat" g'oyasini ro'yobga chiqarish adliya organlari tizimida ma'muriy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo qilmoqda.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish va intellektual mulkning huquqiy himoyasi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishda tizim imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ushbu sohalarda muvofiqlashgan faoliyatni ta'minlash hamda mavjud ma'muriy tuzilmalarning yaxlit vertikal boshqaruvini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda adolat va huquq ustuvorligini mustahkamlash, aholiga professional xizmat qiladigan ixcham va samarali boshqaruvni yaratish, deklarativ xususiyatga ega vazifalarni bekor qilish, funksiyalarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini aniq belgilash va takrorlanishlarning oldini olish orqali budget mablag'larini tejash va ulardan oqilona foydalanish, shu jumladan aholining huquqiy muammolarini hal etishda adliya organlarining roli va mas'uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida:

1. 2022-2023-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari dasturini ishlab chiqishni muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasining Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy boshqarmalari hamda Intellektual mulk agentligi va uning hududiy markazlarini vazifa, funksiya va vakolatlarini Adliya vazirligiga (keyingi o'rnlarda — Vazirlik) o'tkazgan holda qo'shib olish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Vazirlik zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

a) aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish yo'nalishida:

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bartaraf etish hisobiga tezkor, qulay va sifatli davlat xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash;

davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan tegishli axborot tizimlari, resurslar va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;

b) intellektual mulkni huquqiy muhofaza va himoya qilish yo'nalishida:

intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda ixtiolar, tovar belgilari, mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish;

ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish.

3. Adliya vazirligi faoliyati samaradorligini yanada oshirish hamda raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

a) yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari va ularning filiallari hamda FHDY organlari barcha huquq va vakolatlarini saqlagan holda tuman (shahar) adliya bo'limlari tuzilmasiga va bo'y sunuviga o'tkaziladi;

b) Vazirlik:

Davlat xizmatlari agentligi hamda Intellektual mulk agentligining barcha huquqlari, majburiyatlarini va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish hamda intellektual mulk (intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish) sohalarida yagona davlat siyosatini amalga

oshiruvchi hamda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti va intellektual mulk sohasidagi boshqa xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasini ifodalovchi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

v) Davlat xizmatlari agentligi hamda Intellektual mulk agentligining budgetdan tashqari jamg'armalari ularni shakllantirish manbalari va foydalanish yo'nalişlarini saqlagan holda barcha qoldiq mablag'lari bilan birgalikda Vazirlilik tasarrufiga o'tkaziladi.

Agentliklarning budgetdan tashqari jamg'armalari tegishli ravishda Vazirlikning Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi hamda Intellektual mulkni rivojlantirish jamg'armasi etib qayta nomlansin.

5. Vazirlik bir oy muddatda Davlat xizmatlari agentligi va Intellektual mulk agentligining bino-inshootlari, tovar-moddiy boyliklari, zarur axborot tizimlari va boshqa mol-mulklarini hamda tegishli hujjatlarini qabul qilib olishni ta'minlasin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagি PF-5505-son Farmoni bilan tasdiqlangan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish [konsepsiyasidagi](#) vazifalarni amalga oshirish hamda qonunchilik hujjatlarini qabul qilish tartibini takomillashtirish maqsadida 2022-yil 1-maydan boshlab quyidagi tartib o'rnatilsin, unga muvofiq:

qonunchilikka muvofiq mahalliy ijro hokimiysi organlari qarorlarini qabul qilishda hududiy adliya organlari ijobjiy xulosasi olinishi belgilangan hollarda, bunday xulosa olinmasdan tegishli qarorlarni qabul qilish (chiqarish)ga yo'l qo'yilmaydi;

Vazirlik tomonidan vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro hokimiysi organlarining norma ijodkorligi faoliyati monitoring qilinadi hamda uning natijasi bo'yicha har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib boriladi.

7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra 2023-yil 1-apreldan boshlab:

mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalari majburiy tartibda mualliflik huquqi obyektlarining yagona bazasida (keyingi o'rnlarda — Yagona baza) saqlanadi;

"Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi Yagona bazani yuritish, texnik ta'minlash hamda mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalarini Yagona bazaga kiritish jarayonini muvofiqlashtirish bo'yicha mas'ul — operator etib belgilanadi;

obyektning elektron nazorat nusxalari Yagona bazaga mualliflik huquqi obyektlarini saqlash faoliyatini amalga oshiruvchilar (depozitariylar) tomonidan joylashtiriladi;

mualliflik huquqi obyektlarini saqlash faoliyatini amalga oshiruvchilar (depozitariylar) tomonidan obyektning elektron nazorat nusxalari Yagona bazaga kiritilgandan so'ng, uning saqlovga qabul qilinganligi to'g'risida hujjat taqdim qilinadi.

8. Vazirlik:

2022-yil 1-iyulga qadar mualliflik huquqi obyektlarining elektron nazorat nusxalarini Yagona bazada saqlash tartibi to'g'risidagi nizom loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kirtsin;

2023-yil 1-yanvarga qadar Yagona baza ishlab chiqilib, joriy etilishini ta'minlasin.

9. Vazirlik va uning hududiy bo'linmalariga o'zlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun quyidagi qo'shimcha vakolatlar berilsin:

davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash;

intellektual mulk sohasidagi huquqbazarliklar uchun yuridik shaxslarga jarima qo'llash;

davlat organlari va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda yuzaga kelgan mehnat nizosini ko'rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish.

10. Vazirlik huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot institutiga quyidagi huquqlar berilsin:

tahlil va tadqiqot o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va axborotlarni, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash amaliyoti to'g'risida zarur statistik ma'lumotlar, tahliliy materiallar, hujjatlar va boshqa axborotlarni davlat organlari va tashkilotlaridan bepul tarzda so'rash va olish;

davlat organlari va tashkilotlarida qonunchilik hujjatlarini qo'llash amaliyoti bilan Adliya vazirligi bilan birgalikda joyiga chiqqan holda tanishish;

tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun respublikaning yetakchi ta'lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, davlat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta'lim va ilmiy muassasalarining tajribali olimlari, boshqa xodimlari va ekspertlarini sharhnomaga asosida jalb etish;

shartnoma asosida ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishdan tushadigan mablag'larni (ularni amalga oshirish xarajatlarini chegirib tashlagan holda) 80 foizgacha xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy

rag'batlantirish tadbirlariga yo'naltirish.

11. Belgilansinki, davlat tashkilotlaridagi ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lashga doir rag'batlantirish shartlari Institut xodimlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

12. Vazirlik tuzilmasida:

a) boshqaruv xodimlarining cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida:

Xalqaro-huquqiy hamkorlik boshqarmasi, Xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini huquqiy himoya qilish boshqarmasi hamda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash boshqarmasidan iborat Xalqaro-huquqiy hamkorlik departamenti;

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi hamda Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni rivojlantirish boshqarmasi negizida Huquqni ko'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasi;

Yuridik xizmatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi hamda huquqiy xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish boshqarmasi negizida Huquqiy xizmat ko'rsatishni tartibga solish boshqarmasi;

Qonun hujjatlarini tahlil qilish va tizimlashtirish boshqarmasi hamda Tartibga solish ta'sirini baholash boshqarmasi negizida Qonunchilikni tizimlashtirish va tartibga solish ta'sirini baholash boshqarmasi tashkil etilsin;

b) Davlat xizmatlari agentligi hamda Intellektual mulk agentligi qo'shib olinishi munosabati bilan bo'shayotgan shtat birliklari doirasida:

Davlat xizmatlari departamenti;

Intellektual mulk departamenti tashkil etilsin.

13. Belgilab qo'yilsinki, Vazirlikning yangi tashkil etilayotgan tarkibiy tuzilmalari shtatlari birinchi navbatda Vazirlikka qo'shilayotgan Davlat xizmatlari agentligi hamda Intellektual mulk agentligi tizimi xodimlari hisobidan to'ldiriladi.

Vazirlik ikki oy muddatda ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlardan kelib chiqib, tuman (shahar) adliya bo'limgan markazlari va davlat xizmatlari rahbarlarini lavozimidan ozod qilish hamda ushbu lavozimni ichki tanlov asosida yuksak malaka va yuqori professional tayyorgarlikka ega boshqaruv kadrlari bilan to'ldirishni ta'minlasin.

14. Adliya vaziriga:

Vazirlik markaziy apparati, adliya organlari va muassasalarining tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiyo'ni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishgan holda, Vazirlikning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan davlat xizmatlari markazlari va ularning filiallariga qo'shimcha shtat birliklarini joriy qilish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ilmiy va ta'lim muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini, shuningdek, ekspertlarni maslahatchi sifatida jalb qilish;

malakali xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularga ish haqini milliy valyutada yoki xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazgan holda chet el valyutasida to'lash huquqi berilsin.

15. Vazirlikning quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

"O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi qoshidagi Intellektual mulk konsultativ markazi" davlat unitar korxonasini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi sifatida qayta tashkil etish;

Davlat xizmatlari agentligi huzuridagi "Davlat xizmatlarini rivojlantirish ilmiy-amaliy markazi" davlat muassasasini Adliya vazirligi huzuridagi "Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi etib qayta nomlash.

Belgilansinki, "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq ishlarni, shu jumladan ularni ro'yxatdan o'tkazishga doir talabnomalarning davlat ekspertizasini va ular yuzasidan tegishli ma'lumotlar markaziy saqlovini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli tashkilot hisoblanadi.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining ayrim hujjatlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari [3-ilovaga](#) muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

18. Vazirlilik:

bir oy muddatda Moliya vazirligi bilan birligida mazkur Farmonga muvofiq Vazirlikning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvaliga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritinsin;

uch oy muddatda qonunchilik hujjaligiga ushbu Farmonidan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritinsin.

19. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib adliya vaziri R.Q. Davletov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijob uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi B.D. Islamov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning natijadorligi to'g'risida 2022-yil 1-sentabrga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 17-mart,
PF-89-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
2022-yil 17-martdagi PF-89-son
Farmoniga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyati samaradorligini yanada oshirish hamda raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

DASTURI

T/r	Tadbirlarning nomlanishi	Amalga oshirish shakli	Kutilayotgan natija	Amalga oshirish muddati	Mas'ul ijrochilar
1. Yagona davlat huquqiy siyosati sifatini takomillashtirish, huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish					
1.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalariiga (ro'yxat raqami 2565, 2014-yil 28-fevral) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ularni huquqiy ekspertiza va davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlarini yanada soddallashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat	Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ro'yxatidan o'tkazishni rad etishga sabab bo'layotgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda amaldagi qonunchilik hujjatlarini o'zaro muvofiqlashtirish.	2022-yil iyun	Adliya vazirligi
2.	1990 — 2016-yillar oraliq'ida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlarini xatlovdan o'tkazish, xatlov natijasida eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normalarni bekor qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	Milliy qonunchilik bazasini ortiqcha normativ-huquqiy hujjatlardan holi etish, uning tizimliliginini ta'minlash, huquqni qo'llash amaliyotida yuridik ta'sir kuchiga ega bo'limgan hujjatlarni bekor qilish.	2022-yil iyun	Adliya vazirligi
3.	Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash tartibi doirasida xarajatlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qiluvchi elektron dasturni ishlab chiqish.	Tashkiliy- texnik tadbirlar	Normativ-huquqiy hujjatning tartibga solish ta'sirini baholashda shaffoflik va tizimlilikni ta'minlash hamda xodimlarning vaqtini va resurslarini tejash.	2022-2023-yillar	Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar

4.	Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta, moliya va kredit, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyati, tashqi iqtisodiy faoliyat va bojxona ishi sohalariga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish. Ekspertiza natijasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasiga qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	Qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish orqali ijtimoiy himoya tizimi mustahkamlanishi va tadbirkorlik faoliyati yanada rivojlanishiga, shuningdek, mamlakat investitsion jozibadorligini yanada oshirishga erishish.	2022-yil davomida	Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
5.	Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga chekloljar, qo'shimcha talablar, majburiyatlar yoxud xarajatlar joriy qilish, shuningdek, har qanday turdagи imtiyoz, kafolat, preferensiyalarni belgilashni nazarda tutuvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazilishini ta'minlash. Baholash natijasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasiga qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.	Normativ-huquqiy hujjatlarni tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish rejasi	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari ta'minlanishi orqali ularning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini oshirish.	2022-yil davomida	Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
6.	Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish jarayonini avtomatlashtirish.	Tashkiliy-texnik tadbirlar	Normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini avtomatlashtirilgan tahlil qilish, o'zini o'zi o'rganish mexanizmidan foydalanish orqali normativ-huquqiy hujjatlarni tasniflash va tizimlashtirish muammolarini hal qilish, xarajatlarni kamaytirish va ish samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratish.	2022-2023 yillar	Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi
7.	"Legal-Tech" huquqiy tarmog'ini joriy etish tizimini "sun'iy intellekt" mexanizmlaridan foydalangan holda takomillashtirish.	Tashkiliy-texnik tadbirlar	Hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun sarflanadigan resurslar va vaqt ni tejash, tayyorlanadigan loyihalar sifatini oshirish hamda loyihalarni tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish.	2022-yil dekabr	Adliya vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi